



IMOM ABUL BAROKAT NASAFIY

*Imom Buxoriy nomidagi Toshkent**islom instituti 4-kurs talabasi***Muhammadsiddiq Ahmadjonov**

Islomiy aqidaviy tafakkur tarixida Movarounnahr yirik kalomiy maktablardan biri — Moturidiylik asosida shakllangan e’tiqodiy qarashlar markaziga aylangan. Bu maktab nafaqat Abu Mansur al-Moturidiy asos solgan aqidaviy asoslар bilan, balki uning izdoshlari tomonidan ilmiy jihatdan boyitilgan. Aynan shunday izdoshlardan biri — XIII asr mutakallimi Abul Barokat Nasafiy bo‘lib, u o‘zining “Al-E’timod fil-e’tiqod” asari orqali Moturidiylik ta’limotini chuqr asoslab bergan.

Nasafiy nisbatini olgan mashhur olimlardan biri Imom Abul Barokat Nasafiy bo‘lib, u Shayx Abul Mu’in Nasafiyning shogirdi edi. Imom Abul Barokat Nasafiy din va tilshunoslikka oid fanlarning turli sohalarida asarlar yozgan bo‘lib, uning yozgan kitoblari soni 100 dan ortiqni tashkil etadi. Eng mashhur asarlaridan biri “Matn al-Aqaid an-Nasafiyya” bo‘lib, bu asar kichik hajmda yozilgan bo‘lsa-da, u kalom ilmidagi eng muhim masalalarni o‘z ichiga oladi. Najmuddin Nasafiy 537-hijriy yilda (milodiy 1142-yilda) vafot etgan¹.

U o‘z davrining eng mashhur olimlari qoshida tahsil olib, fiqh, usul ilmlari, arab tili va lug‘at bo‘yicha yuksak darajaga erishgan. Ko‘p yillar davomida fatvo berish va dars berish bilan shug‘ullangan va o‘z zamonasida hanafiy mazhabining yetakchi ulamosi bo‘lgan.

Imom Nasafiyning juda ko‘p ustozlari bo‘lgan. Quyida ularning eng asosiylarini keltirib o’tamiz:

1. Shamsul A’imma Abu al-Vajd Muhammad ibn Abdulsattor ibn Muhammad al-Amadiy al-Kurdariy (hijriy 559–642 yillar).

¹ Muhammad Abdulhay Laknaviy. Favaidul bahiyya fi tarojimil hanafiyya. – Bayrut, Darul arqam ibn Arqam, 1998. – B. 101.



2. Imom Hamid al-Milla vad-din Ali ibn Muhammad ibn Ali ar-Romishin al-Buxoriy ad-Dorir (v. 666 hijriy).

3. Alloma Badruddin Muhammad ibn Mahmud ibn Abdulkarim al-Kurdariy, “Javohirzoda” nomi bilan mashhur (v. 651 hijriy).

Ilmiy faoliyati va ta’lim olgan joylari:

Abul Barokat Nasafiy Xuroson va Movarounnahr ilmiy muhitida tarbiya topgan. Ushbu hududlar o’sha davrda nafaqat islom ilmlarining, balki falsafa va mantiq kabi fanlarning ham markazi bo‘lgan.

U dastlab Qur’on, hadis va fiqh fanlari bo‘yicha chuqur bilim olgan. Keyinchalik kalom, aqid va mantiq fanlariga ixtisoslashgan.

Uning asosiy faoliyat joylari Movarounnahrning ilmiy markazlari bo‘lib, Nasaf (hozirgi Qarshi shahri yaqinida joylashgan) bu davrda islom ilm-fani va mutakallimlikning rivojlangan o‘chog‘i hisoblangan.

Moturidiylik ta’limotiga qo‘shtan hissasi va uning Maturidiylik maktabida egallagan o‘rni:

1. Moturidiylik ta’limotining rivojida hissasi:

Abul Barokat Nasafiy Moturidiylik ta’limotini rivojlantirishda faol qatnashgan va uning asosiy aqidaviy masalalarini zamonasining dolzarb muammolariga moslashtirgan.

U Allohning sifatlari, inson irodasi, taqdir va ilm manbalari kabi murakkab masalalarni Qur’on va Sunnatga asoslangan holda izohlagan.

Nasafiy Moturidiylikni faqatgina Movarounnahrda emas, balki boshqa mintaqalarda ham tarqatishga hissa qo‘shtan.

2. Moturidiylik maktabida tutgan o‘rni:

U Abu Mansur al-Moturidiy asos solgan ta’limotni davom ettirib, Moturidiylar maktabining uslubiy yondashuvini rivojlantirgan. Abul Barokat Nasafiyning ishlari Moturidiylikning aqidiy va nazariy jihatdan boyishiga xizmat qilgan. U aqid masalalarida asosan aql va mantiqdan foydalanishni qo‘llab-quvvatlagan. Abul Barokat Nasafiy o‘z davrining mashhur aqid masalalari bo‘yicha bahs yuritgan va ularga Qur’on asosida javob bergan. Abul Barokat Nasafiyning ilmiy



faoliyati nafaqat Maturidiylik ta’limotini davom ettirish, balki uni yangi bosqichga ko‘tarishda katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Shu bois uning “Al-E’timod fil-e’tiqod” asari hozirgi kungacha ahamiyatini yo‘qotmagan.